


# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



**ISSN: 3060-463X**



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....	10
<b>I. R. Berdikulova</b>	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....	14
<b>Onorboev Sh.M.</b>	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
<b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
<b>Rahimova Volida Karim qizi</b>	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
<b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
<b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>	
MOLIYAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
<b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА .....	67
<b>Салихова Алина Муратовна</b>	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....	73
<b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
<b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>	
HUDUDIIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Sodiqova Nigora</b>	



# HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

**Sodiqova Nigora Turayevna**

**Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi**

Email: [nigorasadykova667@gmail.com](mailto:nigorasadykova667@gmail.com)

[ORCID: 0009-0003-7499-7958](https://orcid.org/0009-0003-7499-7958)

**Annotatsiya:** Maqolada hududiy ixtisoslashuvning shakllanish omillari, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari va mintaqaviy rivojlanishdagi strategik ahamiyati Buxoro viloyati misolida tahlil qilindi. Tadqiqotda tabiiy-resurs salohiyati, iqtisodiy-geografik joylashuv, mehnat resurslari, infratuzilma va logistika, bozorlarga yaqinlik, investitsiya muhiti, klasterlashuv darajasi hamda institutsional boshqaruv hududiy ixtisoslashuvning asosiy determinantlari sifatida asoslandi. Cheklangan suv resurslari sharoitida an'anaviy qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini suv tejovchi tarmoqlar, turizm, eksport-bop sanoat, raqamli xizmatlar va innovatsion klasterlar bilan uyg'unlashtirish zarurligi ko'rsatib berildi. Natijalarga ko'ra, Buxoro viloyatida samarali ixtisoslashuv strategiyasi resurslardan oqilona foydalanish, bandlikni oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** hududiy ixtisoslashuv, mintaqaviy rivojlanish, Buxoro viloyati, suv resurslari, klaster, aqlli ixtisoslashuv, infratuzilma, institutsional boshqaruv.

**Аннотация:** В статье проанализированы факторы формирования территориальной специализации, механизмы их взаимосвязи и стратегическое значение для регионального развития на примере Бухарской области. В качестве основных детерминант территориальной специализации обоснованы природно-ресурсный потенциал, экономико-географическое положение, трудовые ресурсы, инфраструктура и логистика, близость к рынкам, инвестиционная среда, уровень кластеризации и институциональное управление. Показано, что в условиях ограниченности водных ресурсов традиционная сельскохозяйственная специализация должна трансформироваться в направлении водосберегающих отраслей, туризма, экспортно ориентированной промышленности, цифровых услуг и инновационных кластеров. Полученные результаты свидетельствуют, что эффективная стратегия специализации Бухарской области является важным условием рационального использования ресурсов, роста занятости, укрепления экспортного потенциала и обеспечения экологической устойчивости.

**Ключевые слова:** территориальная специализация, региональное развитие, Бухарская область, водные ресурсы, кластер, умная специализация, инфраструктура, институциональное управление.

**Abstract:** The article examines the factors shaping territorial specialization, their interaction mechanisms and strategic importance for regional development using Bukhara region as a case study. Natural-resource potential, economic-geographical location, labour resources, infrastructure and logistics, market proximity, investment climate, clustering level and institutional governance are substantiated as the key determinants of territorial specialization. The study shows that, under water-scarcity conditions, traditional agricultural specialization should be transformed toward water-saving sectors, tourism, export-oriented industry, digital services and innovation clusters. The findings indicate that an effective specialization strategy for Bukhara region is an essential precondition for rational resource use, employment growth, export capacity strengthening and environmental sustainability.

**Keywords:** territorial specialization, regional development, Bukhara region, water resources, cluster, smart specialization, infrastructure, institutional governance.

## KIRISH

Hududiy ixtisoslashuv mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasining muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, u hududning tabiiy, iqtisodiy, demografik, institutsional va texnologik ustunliklarini muayyan faoliyat turlarida jamlash orqali raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi. Global iqlim o'zgarishi, suv taqchilligi, transport-logistika zanjirlarining qayta shakllanishi hamda xalqaro bozor talablari kuchayib borayotgan sharoitda hududiy ixtisoslashuv masalasi faqat tarmoqlar tarkibini belgilash bilan cheklanmay, balki mintaqaning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasini aniqlovchi metodologik asosga aylanmoqda.

Buxoro viloyati ushbu masalani tadqiq etish uchun muhim ilmiy-amaliy maydon hisoblanadi. Viloyat



tarixiy-madaniy meros, turizm, an'anaviy hunarmandchilik, to'qimachilik, gaz-kimyo sanoati va qishloq xo'jaligi salohiyatiga ega. Shu bilan birga, hududning iqlimiy xususiyatlari va suv resurslarining cheklanganligi an'anaviy ixtisoslashuv modelini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Demak, Buxoro viloyatida ixtisoslashuvni shakllantirishda resurslardan samarali foydalanish, ekologik cheklolarni hisobga olish, yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni rivojlantirish va institutsional boshqaruv sifatini oshirish masalalari bir butun tizim sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqotning maqsadi hududiy ixtisoslashuvni shakllantiruvchi omillarni tizimli tahlil qilish, ularning mintaqaviy rivojlanishdagi ahamiyatini aniqlash hamda Buxoro viloyati sharoitida suv tejevchi, innovatsion va klasterlashuvga asoslangan ixtisoslashuv yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy ixtisoslashuv nazariyasi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida iqtisodiy geografiya, mintaqaviy iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish konsepsiyalarida keng tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlarning zamonaviy bosqichi, avvalo, Krugman va Fujita tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, mualliflar hududiy ixtisoslashuvning shakllanishini aglomeratsiya samaralari, transport xarajatlari va bozor sig'imi omillari bilan izohlaydi. Ularning fikricha, iqtisodiy faoliyatning ma'lum hududlarda to'planishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi hamda mintaqalarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Hududiy ixtisoslashuv va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etishda Porterning klasterlar nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Olim hududlarda o'zaro bog'langan korxonalar, ta'minotchilar va ilmiy muassasalarning bir hududda jamlanishi innovatsiyalarni jadallashtirishini hamda mahalliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashini asoslab bergan. Porterga ko'ra, hududiy ixtisoslashuvning samaradorligi klasterlashuv darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

So'nggi yillarda hududiy rivojlanish masalalarida "aqli ixtisoslashuv" konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. McCann va Ortega-Argilés ushbu yondashuvni Yevropa Ittifoqining mintaqaviy siyosati misolida tahlil qilib, hududlarning mavjud salohiyati va innovatsion imkoniyatlariga tayangan holda ustuvor yo'nalishlarni tanlash iqtisodiy o'sishni jadallashtirishini ta'kidlaydi. Foray ham aqli ixtisoslashuvni mintaqaviy innovatsion siyosatning samarali vositasi sifatida baholab, hududiy resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Innovatsiyalar va hududiy rivojlanish o'rtasidagi aloqalarni tadqiq etgan Boschma hududiy yaqinlik (proximity) omilining innovatsion faoliyatga ta'sirini baholab, geografik yaqinlikning o'zi yetarli emasligini, institutsional, ijtimoiy va kognitiv yaqinliklar ham muhim rol o'ynashini qayd etadi. Frenken, Van Oort va Verburg esa iqtisodiy faoliyatning turdosh xilma-xilligi (related variety) mintaqaviy iqtisodiy o'sishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Hududiy ixtisoslashuvning institutsional jihatlari Acemoglu va Robinson tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy muvaffaqiyati samarali institutlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib, inklyuziv institutlar mavjud bo'lgan hududlarda iqtisodiy ixtisoslashuv va innovatsion rivojlanish sur'atlari yuqori bo'lishini ta'kidlaydi. Xuddi shuningdek, Xamidov mintaqa iqtisodiyotini boshqarishning institutsional mexanizmlarini tahlil qilib, hududiy rivojlanishda davlat boshqaruvi va mahalliy institutlarning rolini alohida ko'rsatib o'tadi.

Mintaqalar rivojlanishidagi tafovutlar va hududiy nomutanosiblik masalalari Rodríguez-Pose tomonidan chuqur o'rganilgan. Olim iqtisodiy siyosatda ayrim hududlarning e'tibordan chetda qolishi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni kuchaytirishini qayd etib, hududiy ixtisoslashuv siyosatini ishlab chiqishda barcha mintaqalarning salohiyatini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Capello mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasini kompleks ravishda tahlil qilib, hududiy rivojlanish omillari sifatida inson kapitali, infratuzilma, innovatsiyalar va institutsional muhitning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida esa Soliyev hududiy mehnat taqsimoti, tabiiy resurslar, geografik joylashuv va demografik omillarning mintaqaviy ixtisoslashuvga ta'sirini tahlil qilib, iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy rivojlanishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili hududiy ixtisoslashuvning shakllanishi tabiiy-resurs salohiyati, geografik joylashuv, klasterlashuv darajasi, innovatsion muhit, inson kapitali va institutsional omillarning o'zaro uyg'unligi natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar hududiy ixtisoslashuvni faqat ishlab chiqarishning hududiy taqsimlanishi sifatida emas, balki mintaqaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida talqin etmoqda.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini klassik va zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot nazariyalari, jumladan, yangi iqtisodiy geografiya, klaster nazariyasi, aqlli ixtisoslashuv konsepsiyasi, mintaqaviy innovatsion tizimlar hamda institutsional yondashuv tashkil etdi. Tadqiqotda FAO, Jahon banki, UNDP, OECD hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarish va mintaqaviy rivojlanishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, Buxoro viloyatining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.


Metodologik jihatdan maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, omillarni guruhlash, mantiqiy umumlashtirish, indeksli yondashuv va grafik tasvirlash usullari qo'llanildi. Hududiy ixtisoslashuvni baholashda lokalizatsiya koeffitsiyenti, Krugman ixtisoslashuv indeksi, Theil entropiya indeksi, Hirschman–Herfindahl indeksi, aloqali va aloqasiz xilma-xillik ko'rsatkichlari konseptual asos sifatida olindi. Bu ko'rsatkichlar tarmoq konsentratsiyasi, hududiy farqlanish, tarkibiy diversifikatsiya va innovatsion salohiyatni baholash imkonini beradi.

Omillarning nisbiy ta'sir darajasi mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha ilmiy adabiyotlar, Buxoro viloyatining tabiiy-iqtisodiy sharoitlari va ekspert baholari sintezi asosida shakllantirildi. Natijalarni vizual ifodalash uchun omillar ta'siri diagrammasi hamda suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi.

### Tahlil va natijalar

Tahlil natijalari hududiy ixtisoslashuvni shakllantiruvchi omillar ko'p o'lchamli va o'zaro bog'liq tizim ekanligini ko'rsatdi. Buxoro viloyati sharoitida sakkizta asosiy omil ajratildi: tabiiy-resurs salohiyati, iqtisodiy-geografik joylashuv, mehnat resurslari va ularning malakaviy darajasi, infratuzilma va logistika, bozorlarga yaqinlik, investitsiya muhiti, klasterlashuv darajasi hamda institutsional boshqaruv. Ushbu omillarning har biri alohida ta'sirga ega bo'lsa-da, ularning mintaqaviy rivojlanishdagi real natijasi o'zaro uyg'unlashuv darajasi bilan belgilanadi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyatining cheklangan suv resurslari sharoitidagi hududiy ixtisoslashuvini shakllantirishda eng yuqori ta'sir tabiiy-resurs salohiyatiga to'g'ri keladi (22%). Bu holat viloyatda qishloq xo'jaligi, turizm, gaz-kimyxo sanoati va rekreatsion faoliyat turlari tabiiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Iqtisodiy-geografik joylashuv (14%), infratuzilma va logistika (13%) hamda mehnat resurslari salohiyati (12%) hududning bozorlar bilan integratsiyasi, mahsulotlar harakati va innovatsion faolligini belgilovchi asosiy determinantlardir (1-rasm).



1-rasm. Hududiy ixtisoslashuvni shakllantiruvchi asosiy omillarning nisbiy ta'sir darajasi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.



Bozorlarga yaqinlik (11%) va investitsiya muhiti (10%) mintaqaning tashqi iqtisodiy aloqalarini kuchaytiradi. Klasterlashuv darajasi (9%) va institutsional boshqaruv (9%) hozirgi bosqichda nisbatan past ulushga ega bo'lsa-da, zamonaviy ixtisoslashuv strategiyalari kuchayishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari rivojlanishi va mahalliy boshqaruv vakolatlari kengayishi bilan ularning roli ortib boradi.


Buxoro viloyati misolida tarixiy-madaniy meros turizm klasteri uchun, an'anaviy hunarmandchilik esa kashtachilik, zargarlik va kulolchilik klasterlari uchun mustahkam asos yaratadi. Viloyatda yoshlar ulushining yuqoriligi, oliy ta'lim muassasalari va kasbiy tayyorgarlik tizimining mavjudligi malakali mehnat resurslari bazasini kengaytiradi. Shu bilan birga, sug'oriladigan yerlarning cheklanganligi va suv taqchilligi yuqori suv talab qiluvchi tarmoqlar ulushini qisqartirish, intensiv bog'dorchilik, uzumchilik, issiqxona xo'jaligi, chorvachilikning zamonaviy shakllari, turizm va raqamli xizmatlarni rivojlantirishni taqozo etadi (1-jadval).

1-jadval.  
Hududiy ixtisoslashuv omillari va ularning strategik mazmuni<sup>2</sup>

Omillar	Ta'sir mexanizmi	Buxoro viloyati uchun ustuvor yo'nalish
Tabiiy-resurs salohiyati	Yer, suv, iqlim, foydali qazilmalar va rekreatsion resurslar orqali tarmoq tanlovini belgilaydi.	Suv-tejamkor qishloq xo'jaligi, turizm, gaz-kimyo, rekreatsion xizmatlar.
Iqtisodiy-geografik joylashuv	Transport koridorlari, bozor masofasi va savdo xarajatlarini aniqlaydi.	Eksport logistikasi, ziyorat va madaniy turizm oqimlarini kengaytirish.
Mehnat resurslari	Inson kapitali, malaka va innovatsion faoliyatni ta'minlaydi.	Turizm menejmenti, agrotexnologiya, muhandislik va raqamli xizmatlar kadrlarini tayyorlash.
Infratuzilma va logistika	Transport, energetika, sug'orish va raqamli aloqa sifatini belgilaydi.	Tomchilab sug'orish, logistika markazlari, raqamli servis platformalari.
Investitsiya muhiti va boshqaruv	Kapital oqimi, tadbirkorlik faolligi va davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantiradi.	Maxsus dasturlar, klasterlar, investitsiya loyihalarini institutsional qo'llab-quvvatlash.

Tahlil asosida Buxoro viloyati uchun zamonaviy hududiy ixtisoslashuvning ustuvor yo'nalishlari sifatida suv tejoychi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik va gaz-kimyo sanoati, turizm hamda mehmonxona biznesi, hunarmandchilik va eksportbop o'rta sanoat, raqamli xizmatlar va innovatsion ta'lim ekotizimi ajratildi. Ushbu yo'nalishlar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni bir vaqtda ta'minlashi lozim (2-rasm).

2 Muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Cheklangan suv resurslari sharoitida hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish yo'nalishlari<sup>3</sup>

2-rasmda taklif etilgan konseptual model hududiy ixtisoslashuvni resurslar, joylashuv, inson kapitali, infratuzilma va institutsional boshqaruv o'rtasidagi tizimli bog'liqlik sifatida talqin qiladi. Modelga ko'ra, ixtisoslashuv strategiyasining markazida suv tejavchilik, innovatsionlik, klasterlashuv va eksportga yo'naltirilganlik tamoyillari turadi. Ushbu tamoyillar orqali hududda resurs samaradorligi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, eksport salohiyati kengayadi, ekologik barqarorlik mustahkamlanadi va ichki hududiy tafovutlar qisqaradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, hududiy ixtisoslashuvni faqat mavjud tabiiy resurslar asosida izohlash yetarli emas. Zamonaviy sharoitda ixtisoslashuvning samaradorligi bilim, innovatsiya, institutsional sifat, infratuzilma va bozor integratsiyasi bilan belgilanadi. Buxoro viloyatida tarixiy shakllangan paxta-don, chorvachilik va gaz sanoati yo'nalishlari muhim bo'lib qolsa-da, ular suv tejavchi texnologiyalar, qayta ishlash zanjirlari va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish bilan boyitilishi zarur.

Cheklangan suv resurslari ixtisoslashuvning eng muhim cheklovchi omillaridan biridir. Shu sababli suvni ko'p talab qiluvchi an'anaviy tarmoqlardan bosqichma-bosqich intensiv, eksportbop va texnologik jihatdan samarali tarmoqlarga o'tish mintaqaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Bunda tomchilatib sug'orish, suv hisobini raqamlashtirish, agroklastarlarda mahsulotni chuqur qayta ishlash, logistika va sovetkichli saqlash infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Turizm va hunarmandchilik yo'nalishlari Buxoro viloyatining noyob ustunliklari sifatida alohida e'tiborga loyiq. Tarixiy-madaniy meros, ziyorat turizmi, agroturizm, gastronomik turizm va mahalliy brendlar hudud iqtisodiyotida xizmatlar ulushini oshirish bilan birga, ayollar va yoshlar bandligini kengaytirish, kichik biznesni rivojlantirish hamda eksportga xizmatlar shaklida chiqish imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan turizm klasterini ta'lim, raqamli marketing, transport, mehmonxona biznesi va madaniy merosni muhofaza qilish tizimi bilan integratsiyalash zarur.

Institutsional boshqaruv masalasi hududiy ixtisoslashuv strategiyasining amaliy natijadorligini belgilaydi. Markaziy va mahalliy boshqaruv organlari, oliy ta'lim muassasalari, tadbirkorlik subyektlari, investorlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida doimiy hamkorlik mexanizmi shakllantirilmasa, ixtisoslashuvning iqtisodiy samarasi cheklangan bo'lib qoladi. Shu bois mintaqaviy rivojlanish dasturlarida tumanlar kesimidagi mikroixtisoslashuv, monitoring ko'rsatkichlari, resurs samaradorligi va ekologik cheklovlar alohida mezon sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

3 Muallif tomonidan tuzilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot yakuni bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Hududiy ixtisoslashuv mintaqaviy rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional o'lchamlarini birlashtiruvchi murakkab tizimli jarayondir.

Buxoro viloyati sharoitida tabiiy-resurs salohiyati, iqtisodiy-geografik joylashuv, infratuzilma, mehnat kapitali, investitsiya muhiti, klasterlashuv va institutsional boshqaruv asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

Suv resurslarining cheklanganligi an'anaviy qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini qayta ko'rib chiqishni, suv tejoychi qishloq xo'jaligi, turizm, qayta ishlash sanoati, raqamli xizmatlar va innovatsion klasterlarga ustuvorlik berishni talab qiladi.

Hududiy ixtisoslashuvning samaradorligi faqat tarmoq tanlovi bilan emas, balki resurs samaradorligi, qo'shilgan qiymat zanjiri, eksport imkoniyatlari, ekologik barqarorlik va boshqaruv sifati bilan belgilanadi.

Buxoro viloyati uchun taklif etilgan konseptual model mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida tumanlar kesimidagi mikroixtisoslashuvni, davlat-xususiy sheriklikni, ilm-fan va ta'lim integratsiyasini hamda raqamli monitoring tizimini kuchaytirishni nazarda tutadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. FAO. The State of the World's Land and Water Resources for Food and Agriculture (SOLAW 2021). Rome: FAO, 2021.
2. World Bank. Uzbekistan: Country Economic Update – Water Scarcity and Regional Specialization. Washington, D.C., 2023.
3. UNDP. Human Development Report: Central Asia Water-Energy Nexus. New York, 2022.
4. OECD. Regions and Innovation: Collaborating across Borders. Paris: OECD Publishing, 2013.
5. Krugman P., Fujita M. The new economic geography: Past, present and the future // Papers in Regional Science. 2004. Vol. 83, No. 1. P. 139–164.
6. Porter M.E. Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy // Economic Development Quarterly. 2000. Vol. 14, No. 1. P. 15–34.
7. McCann P., Ortega-Argilés R. Smart specialisation, regional growth and applications to European Union cohesion policy // Regional Studies. 2015. Vol. 49, No. 8. P. 1291–1302.
8. Boschma R. Proximity and innovation: A critical assessment // Regional Studies. 2005. Vol. 39, No. 1. P. 61–74.
9. Frenken K., Van Oort F., Verburg T. Related variety, unrelated variety and regional economic growth // Regional Studies. 2007. Vol. 41, No. 5. P. 685–697.
10. Foray D. Smart Specialisation: Opportunities and Challenges for Regional Innovation Policy. London: Routledge, 2015.
11. Acemoglu D., Robinson J.A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. New York: Crown Publishing, 2012.
12. Rodríguez-Pose A. The revenge of the places that don't matter // Cambridge Journal of Regions, Economy and Society. 2018. Vol. 11, No. 1. P. 189–209.
13. Capello R. Regional Economics. 2nd ed. London: Routledge, 2016.
14. Soliyev A.S. Mintaqaviy iqtisodiyot: darslik. Toshkent: Universitet, 2014.
15. Xamidov O.X. Mintaqa iqtisodiyotini boshqarishning institutsional mexanizmlari. Buxoro: Durdona, 2019.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4892953>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)